

Jismoniy tarbiya va sport sohasi samaradorligini oshirishda fiziologik, pedagogik-psixologik yondashuvlar va fanlararo integratsiyalashuv masalalari

O'ZBEK MILLIY O'YINLARI VA HARAKATLI O'YINLARNING AHAMIYATI

Nazarova Dilbarxon.

*Farg`ona viloyati Dang`ara tumani
23-maktab boshlang`ich sinf o`qituvchisi*

Annontatsiya: O`zbekiston milliy harakat o`yinlar va o`zbek urf odatlarini yosh kelajakka o`rgatish va ularga o`rnak bo`lish. O`smirlar sportga qiziqtirish va o`zbekiston championlarini yana kupaytirish va O`zbekiston bayrog`ini yana ko`ksaklarga ko`tarish lozim. Bu championlarni 12 ta viloyat xar-xil musobaqalar orqali O`zbekiston terma jamoasiga tanlab ularni musobaqalarga tayyorlashadi.

Kalit so`zlari: Sport, Murabbiy, milliy o`yinlar, qadryatlar, sportchilar.

Shaxs shakllanishi jarayoniga bevosita dahldor bo`lgan ota-onas, bog`cha tarbiyachisi, boshlang`ich sinf o`qituvchisi, fan o`qituvchilari, jismoniy tarbiya murabbiylari milliy qadriyatlarni bilib, tushinib, ularga katta hurmat bilan munosabatda bo`lganlaridagina har tomonlama yetuk komil insonni shakllantirishlari mumkin. Ota- bobolaridan eshitgan, chop etilgan xalq asarlarini o`qib o`rganib jazzi bolajonlariga o`rgatib kelayotgan ota-onalar, murabbiylar o`z maqsadlariga albatta erishadilar. Chunki umr ko`klamidagi o`yin murg`aklarni ulg`aytiradi, hayotga tayyorlaydi. O`zbek xalqi - bolajon xalq. Bu jarayon ming yillar davomida ruhiyatimizga singib, irsiyatimizga ham o`tgan. Hunar ham suyak suradi, kichkintoy o`zi to`la anglab yetmagan holda, avlodlari shug`ullangan kasbhunarni egallahsga beixtiyor intiladi va murg`ak ongida shakllangan narsalarni yasashga urinadi. Bu harakatlar o`yinlar orqali ro`yobga chiqa boradi. O`yinlar esa turmush tarzimizni har tomonlama qamrab olgan. Masalan, sakramachoq, kim birinchi, quvslashmachoq, bekinmachoq, o`tirma bedana, o`rtaga kirar, ot o`yin, do`ppi o`yin, to`p tosh o`yini, uyakam o`yini, ko`ch-ko`ch o`yini, loyporsildoq, hammom pish o`yini va boshqalar. Ro`yxatni yana davom ettirish mumkin. Ularning ayrimlarini ijro o`rni, maqsad va vazifalarini tahlil qilib ko`raylik:

Bolalar o`yinlari juda zavqli. Ular bu o`yinlarni o`ynab o`zlarini o`zlari chiniqtirishadi. Masalan sakramachoq – o`yinida bolalar tez hamda chaqqon bo`lishga xarakat qilishadi. Unda gavdaning barcha a`zolari ishtirok etadi. Maromida sakrash, tez sakrash, yugurib kelib sakrash, qatorlashib sakrash- bu o`yinlar bolalarni kuchli, sog`lom va baquvvat qiladi. Bu kabi o`yinlarni ko`plab sanash mumkin.

Jismoniy tarbiya va sport sohasi samaradorligini oshirishda fiziologik, pedagogik-psixologik yondashuvlar va fanlararo integratsiyalashuv masalalari

Dehqon oilasida tug`ilgan bolalar yozning issiq kunlarida to`planishib, xammomkish o`yinini yoqtirib o`ynashadi. Bu o`yin o`z nomiga monand uysozlik o`yini bo`lib, kichkintoylar chalaquriq to`plangan qum ustiga ho`l bosib hammomning gumbazi shakliga keltiradilar. Gumbazning ust qismini qotiradilar.

Gumbazning bir chetidan eshik ochib ichidagi hom qumni chiqarar ekan, gumbazini ohista shapatilab, o`zlarining an'anaviy hammomkish qo'shig`ini boshlaydi:

Hammomkish, hammomkish
Hammanikidan oldin pish.
Hammadan oldin pishmasang
Buzilib ket, o`yilib tush!

Bunda kimning gumbazi pishshiq shibalangan bo`lsa, buzilmaydi. Gumbazi buzilmay qolgan usta ruhlanib, baqirib-chaqirib, oyoq-qo'llarini harakatlantirib, o'ynoqlab qo'shiq boshlaydi

Mening buvim: "Suv", - dedi.
"Oyoq-qo'lining yuv", - dedi.

Bu o`yin jarayonida norasidaning uysoz-ustachilikka havasi paydo bo'ladi. Bu hunarga mehr qo'yadi, mehnatga layoqati oshadi.

Loyparsildoq o`yini ham juda qiziq. Loydan kosacha yasab, uni to`ntarib turib, silliq yerga urilsa, bu "idish" ichida siqilgan havo porsillab boshmaldoqning tirnog'icha joyni o'pirib chiqadi, porsillagan tovush qancha baland chiqsa, bolajonlarning quvnoq shovqini shunchalik avjlanadi, turli-tuman uzuq-yuluq qo'shiqlarga ulanadi... Loy yerga urilaverib, rosa pishgach, undan uzun chorqirra g`ishtchalar tayyorlashadi va bir-biriga o`xshamaydigan, har biri o`ziga xos tarix asosida qadimgi pahsadevor imoratlar andozasida uychalar yasaydilar. Bu ham uysoz ustachilik hunariga bolaning qo`lini o`rgatib, ko`zini pishtib boradigan o`yinlardan biridir. Ham aqliy, ham jismoniy mehnat samarasini unib o'sib kelayotgan yosh avlod uchun muhim.

O`yin qaysi shakl, mavzu, yo`nalishga ega bo`lmasin, -loy, tuproq bilanmi, cho`p bilanmi, ipu-arqon bilanmi, yosh niholni hayotga, sog'lom bo`lishiga, turmush ikir-chikirlariga, ro`zg`or ishlariga xozirlashda o`ziga xos hunar maktabi vazifasini bajargan.

Kichik yoshdagagi bolalar kattalarning yurish turishiga, xatti-harakatiga, so`ziga, ishiga taqlid qilishni ma'qul ko`radilar. Qo'shiqlar xirgoyi qilish bilan birga, mehnat jarayonida ota-onasi, aka-opasi qavatida turib ishslashni yoqtiradilar. Kuchi yetgan, o`z qobiliyatiga muvofiq yumushlar, bolajonlarni ilhomlantiradi,

Jismoniy tarbiya va sport sohasi samaradorligini oshirishda fiziologik, pedagogik-psixologik yondashuvlar va fanlararo integratsiyalashuv masalalari

mehnatga bog`liq qo`shiqlar to`qishga va ijro qilishga undaydi. Kattalarga ergashib, jo`xorizorni chumchuqlardan qo`riqlab yurgan bolalar shunday qo`shiq kuylaydilar:

Uyning kuygur chumchuqlar,
 Jo`xorimni yeb ketding.
 To`ymay yana u suqlar:
 “Erta kutgin”,- deb ketdi
 Ho-huv, gala-gala,
 Ho-ho, ho-ho, huvv!
 Kelmay o`lgur chumchuqlar
 Tol boshida bola ochar
 Bolasidan bermasdan
 Ketmontepaga qochar.
 Ho-huv gala-gala
 Ho-ho, ho-ho, huvv!

Bolalar ayniqsa, mehnat qo`shiqlarini bevosita biron bir ish bilan mashg`ullik jarayonida juda ko`tarinki kayfiyatda ijro qiladilar. Shu paytda ular o`zlarini kattalardek sezadilar. Chunki ulardagi ulg`ayish istagi, hayotda murg`ak qalbdagi to`lqinlarni jo`sh urdiradi, kuylatib yuboradi. Shu yo`sinda bolajonlar o`zlar shug`ullanayotgan o`yin-mehnat maromiga hamohang qo`shiqlar to`qib kuylaydilar. Bolalar ruhiyatida kechayotgan jarayonni kattalar ayniqsa boshlang`ich sinf o`qituvchilari kuzatib, o`z o`rnida, me`yorida rag`batlantirmoqlari lozim. Ularning qobiliyati va ijro imkoniyatlariga qarab, yo`l- yo`riqlar berib turmoqlari zarur. Xato qilsa, sira kansitmay, ohista, samimi tushintirilsa, maqsadga muvofiq bo`ladi. Ayniqsa, ota- onalar mehnat jarayonida farzandlarini yonlarida olib yursalar, ularga zerikib, bezillab qolmaydigan darajada ish buyursalar, o`zlar qo`shiq xirgoysi qilib ishlasalar, bu bolajonlarning ham aqliy, ham jismoniy, ham milliy tarbiya usullaridan birini bajargan bo`lar edilar...

Xullas, bolalarning me`yordagi mehnati bilan bog`liq o`yin qo`shiqlarning ijtimoiy ruhiy mohiyati juda katta bo`lib, ularni sog`lom shaxs sifatida shakllantiruvchi asosiy vositalar sirasida xizmat qiladi. O`zbek bolalar milliy o`yinlari qadim va navqiron, mavzulari xilma-xil, so`zları sermazmun va oxangdor, serharakat, shakli ixcham, xazinasi boydir. Ularning zamirini mehnatkash o`zbekning qadr-qiymati, ruhiyati, orzu-intilishlari tashkil etadi, ular har qanday qalbga olov beradi.

Jismoniy tarbiya va sport sohasi samaradorligini oshirishda fiziologik, pedagogik-psixologik yondashuvlar va fanlararo integratsiyalashuv masalalari

ADABIYOTLAR:

1. Mahkamdjanov K.M., Nurmatov F.A, Inozemseva L.A, Rustamov L "Sport bayramlarini tashkil qilish va o‘tkazish metodikasi" Darslik T.: 2008-y.
2. Usmonxo‘jaev T.S. "Harakatli o‘yinlar" O‘quv qo‘llanma T.: O‘qituvchi 1992
3. Xo‘jaev P., Raximqulov K.D., Nigmanov B.B. Sport va harakatli o‘yinlar va uni o‘qitish metodikasi. (Harakatli o‘yinlari) O‘quv qo‘llanma TDPU T.: 2008-y.
4. Raximqulov K.D. "Milliy harakatli o‘yinlari" O‘quv qo‘llanma T.: 2012-y.
5. Mirxojidinovna, Xudoynazarova Gullola, Tolibjonov Sardorbek Ravshan o‘g‘li, and Ahmadjonov Abdurahmon Ahmadjon o‘g‘li. "HARAKATLI O‘YINLAR HAMDA ULARDAN FOYDALANISH SHARTLARI." ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ 16.4 (2023): 104-109.
6. Tolibjonov Sardorbek, and Xudoynazarova Gullola Mirxojidinovna. "HARAKATLI O‘YINLARNING AHAMIYATI." ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ 23.5 (2023): 42-47.
7. Ravshan o‘g‘li, Tolibjonov Sardorbek, and Xudoynazarova Gullola Mirxojidinovna. "O’RTA MASOFAGA YUGURUVCHILARNING TEXNIK TAKTIK TAYYORGARLIGINI NAZORAT QILISH." ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ 23.5 (2023): 33-36.
8. Ravshan o‘g‘li, Tolibjonov Sardorbek, and Xudoynazarova Gullola Mirxojidinovna. "O’RTA VA UZOQ MASOFALARGA YUGURISH TEXNIKASI." ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ 23.5 (2023): 37-41.